



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 56 sahifa,  
6-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
<a href="#">Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi</a>	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
<a href="#">Omonova Nilufar Parda qizi</a>	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
<a href="#">Xujanova Shaxina Abdullayevna</a>	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari .....	24
<a href="#">Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna</a>	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
<a href="#">Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna</a>	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
<a href="#">Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna</a>	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionallashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
<a href="#">Nuraliyeva Dilshoda Yo'lichiboy qizi</a>	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
<a href="#">V. Sh. Raximov</a>	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni .....	46
<a href="#">Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi</a>	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli .....	51
<a href="#">Vasila Yusupova</a>	

# ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIM: MILLIY DASTUR, KOMPETENSIYA VA XORIJIY TAJRIBA INTEGRATSIYASI

Omonova Nilufar Parda qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda zamonaviy maktablarda yuz berayotgan rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. O'zbekistonda boshlang'ich ta'limga joriy etilayotgan zamonaviy yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va ayrim kamchiliklari yoritiladi. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda aniq didaktik vositalardan foydalanish zarurati asoslab beriladi. "Milliy o'quv dasturi" asosida yaratilgan yangi avlod darsliklari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qib tushunish va yozma nutq ko'nikmalarining rivojlanish jarayoni hamda rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimining mazmun-mohiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, kompetensiya, tinglab tushunish, so'zlash, o'qib tushunish, yozma nutq, zamonaviy ta'lim, xorijiy tajriba, darslik, dastur, milliy o'quv dasturi.

**Abstract:** The article analyzes ongoing educational reforms and development processes in modern schools. It highlights the specific features, advantages, and certain shortcomings of contemporary approaches to primary education in Uzbekistan. The necessity of effectively organizing the educational process through the use of precise didactic tools is substantiated. A comparative analysis of new-generation textbooks developed based on the "National Curriculum" is presented. In addition, the development of students' listening, reading, and writing skills, as well as the essence of educational systems in developed foreign countries, is examined.

**Key words:** primary education, competence, listening comprehension, speaking, reading comprehension, writing, modern education, foreign experience, textbook, curriculum, national curriculum.


**Аннотация:** Анализируются реформы, осуществляемые в системе образования, а также процессы развития, происходящие в современных школах. Освещаются особенности, преимущества и отдельные недостатки современных подходов к начальному образованию в Узбекистане. Обосновывается необходимость эффективной организации образовательного процесса с использованием конкретных дидактических средств. Проводится сравнительный анализ учебников нового поколения, разработанных на основе "Национальной учебной программы". Также раскрываются процессы формирования навыков аудирования, чтения и письменной речи у учащихся, а также сущность образовательных систем развитых зарубежных стран.

**Ключевые слова:** начальное образование, компетенция, аудирование, говорение, чтение, письменная речь, современное образование, зарубежный опыт, учебник, программа, национальная учебная программа.

## KIRISH

Davlatimiz rahbari "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Shu bois Prezidentimiz: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi", – deya ta'kidlab, "Uchinchi Renessans poydevori"ni aynan ta'lim islohotlari bilan bog'laydi. Ta'lim jarayoni uzluksiz bo'lib, uning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan, sifatli natijalarga olib keluvchi izchil islohotlarga tayanadi.

Mazkur tadqiqotda umumiy o'rta ta'limning muhim bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'lim masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Zamonaviy yondashuvlar ta'lim jarayonini aniq didaktik vositalar asosida samarali tashkil etish hamda belgilangan o'quv dasturlariga erishishni ta'minlaydi. Shuningdek, o'quv yuklamasi va darslar sonini maqbullashtirish, o'quvchilarni yodlashdan ko'ra mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi metodikalarni joriy etish zarurligi alohida qayd etiladi.



1-rasm: Ta'lim jarayonining bosqichma-bosqich modeli: maqsaddan kompetensiyaga qadar

Mazkur yo'nalishda Finlandiya tajribasi ilg'or namuna sifatida e'tirof etiladi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ta'limni isloh qilish jarayonida darsliklar sifatini oshirish, o'quvchi va o'qituvchi mustaqilligini ta'minlash muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev darsliklar sifatini oshirish zarurligini ta'kidlab, Finlandiya standartlari asosida 1–4-sinflar uchun yangi avlod darsliklarini yaratish tashabbusini ilgari surdi. Bu esa ta'lim tizimiga yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish zaruratini yuzaga keltirdi. Hozirgi kunda barcha maktablarda "Milliy o'quv dasturi"ni bosqichma-bosqich joriy etish hamda mahalliy va xorijiy tajribaga asoslangan zamonaviy darsliklarni amaliyotga tatbiq etish ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchining umumiy ta'lim tizimidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. To'rt yil davomida o'quvchi nafaqat fanlar bo'yicha bilimlarni egallaydi, balki mustaqil o'rganish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchisining mas'uliyati nihoyatda muhimdir. Boshlang'ich bosqichda olingan bilimlar keyingi ta'lim jarayoni uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim shaxsga yo'naltirilgan rivojlanish modelini belgilab, o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga qiziqishini oshirish, ma'naviy-axloqiy hamda estetik tarbiyasini shakllantirish, bilim, ko'nikma va malakalarni tizimli egallash, jismoniy va ruhiy salomatlikni mustahkamlash hamda individuallikni qo'llab-quvvatlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Jahon ta'lim tizimi tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir rivojlangan davlat boshlang'ich ta'limga alohida ustuvor ahamiyat qaratadi. Masalan, Xitoyda bolalar 6 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinadi va 6 yil davomida boshlang'ich ta'lim oladi. Ushbu bosqichda o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Ular jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida faol qatnashadi, musiqa asboblari chalishni o'rganadi hamda chet tillarini egallashga alohida e'tibor beradi. Darslar odatda soat 7:00 da boshlanib, 8:00–12:00 oralig'ida asosiy fanlar o'qitiladi. 12:00–13:00 oralig'ida tushlik tanaffusi tashkil etiladi, undan so'ng gumanitar fanlar o'tiladi va mashg'ulotlar 16:00 da yakunlanadi.

Turkiya boshlang'ich ta'lim tizimida esa ekologik ta'limga alohida e'tibor qaratilgan. 2005-yildan boshlab joriy etilgan o'quv dasturlarida ekologik mazmundagi mavzular "Hayot xavfsizligi (atrof-muhit)" hamda "Tabiiy fanlar va texnologiya" fanlari tarkibiga kiritilgan. Ushbu fanlar o'quvchilarda o'zini anglash, tabiat jarayonlarini tushunish, hayot sifatini yaxshilash yo'llarini izlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Finlandiya 2014–yilda asosiy ta'lim bo'yicha yangi milliy tayanch o'quv dasturini ishlab chiqdi va u 2016–yil avgust oyidan boshlab Finlandiya maktablarida amaliyotga joriy qilina boshlandi. O'quv dasturini isloh qilishdan maqsad o'qituvchilar va pedagoglarga bolalar va yoshlarning hayotida zarur bo'lgan narsalarni o'rgatishda yordam berishdir (Sahlberg 2015). Finlandiya ta'limining oliy maqsadi farzandlarimizni hayotga tayyorlashdir. Biz farzandlarimiz kelajakda ularning hayotida yordam beradigan bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarini o'rganishlarini xohlaymiz. Shuning uchun biz bugungi tez o'zgaruvchan dunyoda ularga qanday muhim kompetensiyalar kerak bo'lishi haqida o'ylashimiz kerak.

Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, yangi yaratilgan "Milliy o'quv dasturi" asosida chiqarilgan darslikda o'quvchilarning og'zaki bilim ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'qish (umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari o'quv rejasidagi adabiyot) fani og'zaki va izchil nutqni o'stirish, so'z boyligini oshirish, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'qish darslari oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay, balki bolani qurshab olgan hayot, tabiatdagi o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. O'quvchini o'qishga o'rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko'riladi. O'qish darslari bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan, poklik tuyg'ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at fanlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak.

O'qish, musiqa va tasviriy san'at darslarini o'zaro bog'lab uyushtirish bolalarda san'at asarlarini to'g'ri tushunish va qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi, o'quvchining shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi. "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanida (milliy o'quv dasturida boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish bitta fanga birlashtirilgan) grammatik qoidalarga emas, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga urg'u berilgan.

Ona tili o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy turlari: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqazo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish davomida quyidagi manbalar o'rganildi, tahlil qilindi hamda milliy xususiyatlar, ona tilimiz tabiati inobatga olingan holda dastur mazmuniga singdirildi:

- amaldagi DTS asosidagi malaka talablari;
- amaldagi Ona tili o'quv dasturi;
- amaldagi "Ona tili" darsliklari;
- amaldagi baholash mezonlari;
- AQSHning "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida ingliz tili va matematikani o'qitish va sinovdan o'tkazish bo'yicha ta'lim standartlari" (Common Core);
- Yangi Zelandiyada ingliz tilini o'qitish bo'yicha ta'lim standartlari (English in New Zealand Curriculum);
- Turkiyaning "Turkcha" fani o'quv dasturlari va malaka talablari;
- 1–9-sinflar uchun "Turkcha" fani darsliklari;
- 10–12-sinflar uchun "Turk tili va adabiyoti" fani darsliklari;
- Kembrij maktablari uchun "Ingliz tili" fani darsliklari;
- AQSHning Florida shtati "Ingliz tili" fani darsliklari;
- AQSHning Florida shtati "Ingliz tili san'ati" ta'lim standartlari (English Language Arts Grade 0–12);
- "Til o'qitish metodologiyasi: o'qituvchilar uchun qo'llanma" (Devid Nunan);
- "Metodlar ortida: til o'qitishning makrostrategiyalari" (Bola Kumaravadivelu);
- "Til o'qitishda yondashuv va metodlar" (Jek Richards, Teodor Rodjers);
- "Til o'qitish metodologiyasi" (Jek Richards, Villy Renandya);
- "Tilni aloqa vositasi sifatida o'qitish" (Henry Viddovson);
- "Birinchi tilni o'zlashtirish" (Eve Klark).

Psixolingvistik tadqiqotlardan ma'lumki, insonning til qobiliyati to'rtta kognitiv malakaning o'zaro bog'liqligida rivojlanadi: eshitib tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qib tushunish va fikrni yozma bayon qilish. Eshitib tushunish va gapirish og'zaki nutq shakli bilan bog'liq bo'lsa, o'qib tushunish va yozish tilning yozma shakli bilan bog'liqdir. Eshitib tushunish va o'qib tushunish psixologik jihatdan nutqni qabul qilish jarayoni bo'lsa, gapirish va yozish nutqni ifodalash jarayonidir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimizda boshlang'ich ta'lim yo'nalishida faoliyat olib borayotgan bir nechta o'qituvchilar bilan suhbatlashildi: ularning olib borayotgan faoliyati hamda ta'limdagi o'zgarishlarga bo'lgan munosabati o'rganildi.



2-rasm: Zamonaviy boshlang'ich ta'limda SWOT tahlil modeli

## TAHLIL VA NATIJALAR

Quyida "Boshlang'ich ta'limdagi islohotlar" mavzusida olib borilgan kuzatuvlar asosidagi tadqiqot natijalari SWOT tahlil shaklida keltirildi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limga zamonaviy yondashuvlarni o'rinli deb hisoblaymiz. "Milliy o'quv dasturi" asosida yangi darsliklarning yaratilishi, xorijiy dasturlarning ta'lim tizimiga joriy etilishi ushbu fikrni tasdiqlaydi. O'zbekistonda, jumladan, AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) hamda Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi hamkorligida "Ona tili va o'qish savodxonligi" hamda "Matematika" fanlaridan boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun yangi darslik va qo'llanmalar ishlab chiqildi. 2022–2023-o'quv yilida Namangan va Sirdaryo viloyatlaridagi 918 ta maktabda "Ona tili va o'qish savodxonligi" hamda "Matematika" fanlaridan boshlang'ich sinflar uchun yangi darsliklar sinovdan o'tkazilmoqda.

K. D. Ushinskiyning fikricha, bolaga ta'lim va tarbiya berishda tilning qimmati, avvalo, ijtimoiy hodisaning chuqur xalqchilligi hamda uning milliy xarakteri bilan belgilanadi. U "tilda chuqur ma'noli ko'pdan ko'p falsafiy fikrlar, chinakam nafis his-tuyg'ular, nihoyatda to'g'ri va ko'rkam did, fikrni bir yerga to'plab, zo'r diqqat bilan qilingan mehnat izlari, tabiat hodisalarini va ulardagi eng nozik rang-barangliklarni g'oyat darajada ziyraklik bilan his etish, kuzatuvchanlik, zo'r mantiqiylik mavjud", deb ta'riflaydi.

K. D. Ushinskiy o'zining "Ona tili so'zlari" maqolasida bolani ona tili, ona tilidagi so'zlar orqali tarbiyalash masalasini ilgari suradi. Chunki xalqchillik, eng avvalo, ona tilida o'z ifodasini topadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolaning shaxsiyati, bilimi, malakasi hamda ma'naviy qiyofasi til ta'sirida shakllanadi. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli va ustuvor yo'nalishlardan biri o'quvchilarning yetuk shaxs sifatida rivojlanishi hamda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalanishini ta'minlashdan iboratdir. Zamonaviy ta'lim O'zbekiston yoshlarini istiqbolli kelajakka yo'naltiradi.

Ta'lim-tarbiya – jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Shu bois, ushbu sohadagi islohotlarni izchil davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida mustahkam poydevorni bugundan boshlab shakllantirish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2019. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022. PF–134-son farmon.
3. O'zbekiston Respublikasi. 2020. Ta'lim to'g'risidagi qonun.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. 2021. Milliy o'quv dasturi. Toshkent.
5. Азитова, Г. Ш., Краснова, М. Н. 2017. Особенности системы образования в Китае. Современные проблемы науки и образования, № 5.
6. Bruner, J. 1960. The process of education. Harvard University Press.
7. Clark, E. V. 2009. First language acquisition. Cambridge University Press.
8. Dewey, J. 1938. Experience and education. Macmillan.
9. European Commission. 2018. Key competences for lifelong learning. Publications Office of the European Union.
10. Fullan, M. 2007. The new meaning of educational change (4th ed.). Teachers College Press.
11. Harmer, J. 2007. How to teach English. Longman.
12. Hattie, J. 2009. Visible learning: A synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement. Routledge.
13. Nunan, D. 1991. Language teaching methodology. Prentice Hall.
14. Piaget, J. 1969. The psychology of the child. Basic Books.
15. Sahlberg, P. 2015. Finnish lessons 2.0: What can the world learn from educational change in Finland? Teachers College Press.
16. Сарачоглу, З. К. 2015. Экологическое образование в начальных школах Турции. Современные проблемы науки и образования, № 2–2.
17. Tomlinson, B. 2011. Materials development in language teaching. Cambridge University Press.
18. UNESCO. 2017. Education for sustainable development goals. UNESCO Publishing.
19. Ушинский, К. Д. 1988. Она тили va tarbiya masalalari. Toshkent.
20. Vygotsky, L. S. 1978. Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.